Musiqiy savodxonlik

3



novda

Education Alliance Finland

TIER 1

CERTIFIED

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

N.P.Cheryomuxina

Musiqiy savodxonlik

3-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi
ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.

TASDIQLANGAN
PLAGIATGA QARSHI
TASDIQLANGAN

novda
edutainment

Toshkent – 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG‘ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI BO‘LIMI
33-UMUMIY
O‘RTA TA’LIM
MAKTABI
№ 85
«18» 10 2023 y.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K: 78(075.3)
KBK 85.31ya72
Ch 44

N.P.Cheryomuxina

Musiqiy savodxonlik: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. / N.P.Cheryomuxina. – Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 72 b.

Taqrizchilar:

I.M.Mirtalipova – O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomli Milliy estrada san'ati institutining Ilmiy ishlar va innovatsiya bo'yicha prorektori, san'atshunoslik bo'yicha falsafa doktori (PhD);

M.V.Isayeva – Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi T.Sodiqov nomidagi 1-son bolalar musiqa va san'at maktabining "Musiqa nazariyasi" bo'limi oliy toifali o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



Savol va topshiriqlar



Tinglang



Guruh bo'lib ishlang



Ko'ring



His-tuyg'ular lug'ati



Pianinochi dasturida ishlash

ISBN 978-9943-9694-4-5

© N.P.Cheryomuxina
© "Novda Edutainment", 2023

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi

Abdulla Oripov so‘zi, *Mutal Burxonov musiqasi*



1. Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot!
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQAROT:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

1

2. Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas imoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

NAQAROT:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Konsertga boramiz

Konsert – san'atkorlarning oldindan e'lon qilingan dastur asosida maxsus joylarda musiqiy, adabiy, estrada asarlarini ommaviy ijro etishlari.



Xalqlar do'stligi saroyi

Bu yerda respublika xalq artistlari va musiqiy ansambllarining konsertlari, xorijiy guruhlar va qo'shiqchilarning chiqishlari o'tkaziladi.



O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Konservatoriya – maxsus musiqiy ta’lim muassasasi. Bu yerda turli yo‘nalishdagi musiqa ijrochiligi, bastakorlik, musiqashunoslik sohalari bo‘yicha ta’lim beriladi.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi mamlakatimizdagi eng yirik musiqiy oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi. Konservatoriya binosida to‘rtta zal mavjud bo‘lib, ularda musiqa san’atining turli yo‘nalishlaridagi asarlar ijro etiladi. Konservatoriya repertuarini o‘quv konsertlari, shuningdek, Botir Zokirov nomidagi estrada-simfonik orkestri va O‘zbekiston Davlat akademik xalq cholg‘ulari orkestrining chiqishlari tashkil etadi.

Repertuar – drama teatri, musiqali teatr, estrada konserti yoki san’atkorlar tomonidan ijro etiladigan asarlar majmui.



Konsert zalida o‘zini tutish qoidalari:

- O‘zingizni vazmin tuting, atrofdagilarga xushmuomala bo‘ling.
- Mobil telefoningizni o‘chirib qo‘ying.
- Zalga kirayotganda o‘g‘il bolalar birinchi bo‘lib qizlarni o‘tkazib yuborsin.
- O‘rindiqda o‘tirganda ikkala tirsak qo‘ygichni egallab olmang.
- Agar spektakl ijrosi kechiksa, hovliqib qarsak chalmang.
- Parda ko‘tarilgandan keyingina qarsak chalishga ruxsat beriladi.
- Spektakl davomida taassurotlaringiz haqida gapirmang.
- Spektakldan keyin minnatdorchiligingizni faqat qarsaklar bilangina emas, balki “Ofarin!” degan xitob bilan ham bildirishingiz mumkin.
- “Bis!” so‘zi har doim ham mos kelmaydi. Bu “iltimos, takrorlang” degan ma’noni anglatadi.

Orkestr nima?
Simfonik orkestr tarkibiga qanday cholg‘u asboblari kirishi haqida o‘ylab ko‘ring.
Orkestrda musiqa chalish uchun qanday bilim va malakalarga ega bo‘lish kerak?

Orkestrga dirijyor rahbarlik qiladi. U musiqachilarga qachon va qanday chalishni qo‘l harakati bilan ko‘rsatib turadi. Ijro etilayotgan musiqiy asar tinglovchini hayajonga solishi va zavqlantirishi uchun orkestr musiqachilari dirijyor rahbarligida musiqani, shuningdek, bir-birlarini his qilib va tushunib, o‘zaro muloqotda bo‘ladilar. Musiqachilar kuyni notalar asosida chaladilar.

Dirijyor oldida partitura bo‘lib, unda orkestrdagi har bir cholg‘u asbobi uchun musiqiy notalar partiyasi yoziladi.

Simfonik orkestrning musiqiy imkoniyatlari juda keng. U turli cholg‘u asboblardan tuzilib, guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhdagi musiqachilar sahnada yonma-yon o‘tiradilar.

Rasmga qarang va musiqachilar qanday guruhlarga bo‘linganiga e’tibor bering.
Dirijyorning joyi qayerda?
Torli-kamonli, puflab chalinadigan, zarbli cholg‘u asboblari guruhlari qayerda joylashgan?





Obod vatanim

J.Jabborov she'ri,
Sh.Yormatov musiqasi





Go‘zal diyorim,
G‘azal diyorim.
Asal diyorim,
Zarhal diyorim.

Yog‘dumiz o‘zing,
Orzumiz o‘zing.
Ko‘zgumiz o‘zing,
Ko‘nglimiz o‘zing.

Naqarot:
Vatanimiz san,
Chamanimiz san.
Naqadar go‘zal,
Obod vatanim –
O‘zbekistonim!

Moviy samoli,
Mayin saboli.
Quvnoq sadoli,
Baxt-u safoli.

Oltin belanchak,
Oydin kelajak.
Go‘zal kelinchak,
Baxti gul chechak.

Naqarot

Go‘zal diyorim,
G‘azal diyorim.
Asal diyorim,
Zarhal diyorim.

Biz gullaringmiz,
Bulbullaringmiz.
Gul-g‘unchalarmiz,
Bulbulchalarmiz.

Naqarot



Estrada san'ati

Estrada san'ati – ko'ngilochar, ommabop badiiy: adabiy, musiqiy, raqs, tomosha va boshqa janrlarni o'z ichiga oladi.

Estrada qo'shiqlarini hamma joyda – radioda, televizorda, kinoda, teatrda va sirkda eshitishimiz mumkin.

Estrada deganda quvnoq kuy-qo'shiqlar ko'z oldimizga keladi. Odamlar konsert zallariga borishadi, televizorda estrada konsertlarini tomosha qilishadi. Har bir insonning o'z sevgan qo'shiqlari va qo'shiqchilari bo'ladi. Yoshlarning, shuningdek, katta avlod vakillarining ham yoqtirgan mashhur estrada qo'shiqchilari bor.



- Siz qaysi estrada artistlarini taniysiz?
- Ularning qo'shiqlaridan parcha kuylab bera olasizmi?

Estrada cholg‘u asboblari



Estrada orkestrida simli, puflama, klavishli, zarbli va elektron musiqa asboblarida kuy ijro etiladi. Ularga mashhur va keng tarqalgan cholg‘u asboblari – elektron gitara, bas gitara, barabanlar to‘plami, saksofonlar va sintezatorlarni misol qilib keltirish mumkin.



Guruhlarga bo‘linib, quyidagi mavzularda matn tuzing.

1-guruh – zamonaviy estrada san’ati;
2-guruh – O‘zbekiston estrada san’ati;
3-guruh – ota-onangiz yoqtiradigan estrada musiqasi.

Doira dum-dum

3

Doira dum-dum-a, bahori mavsum-a,
Kelsa bahor, gulg‘unchalar qilar tabassum-a.
Doira dum-dum-a, bahori mavsum-a,
Kelsa bahor, gulg‘unchalar qilar tabassum-a.
Bak-bakabum ovozing, o‘tda toblanar sozing,
Davramizga kela qol-ey, qo‘shiq avjida o‘zing.
Gir aylanib o‘ynayman, chir aylanib o‘ynayman,
Doiraning zavqiga-yey, qo‘shiq kuylab to‘ymayman.
Gir aylanib o‘ynayman, chir aylanib o‘ynayman,
Doiraning zavqiga-yey, qo‘shiq kuylab to‘ymayman.

Naqarot:
Doira dum-dum-a, bahori mavsum-a,
Kelsa bahor, gulg‘unchalar qilar tabassum-a.



Tantanalar gulisan, an'ana, udumisan,
Jaranglaydi ovozing-ey, davrada eng zo'risan.
Gir aylanib o'ynayman, chir aylanib o'ynayman,
Doiraning zavqiga-yey, qo'shiq kuylab to'ymayman.
Gir aylanib o'ynayman, chir aylanib o'ynayman,
Doiraning zavqiga-yey, qo'shiq kuylab to'ymayman.

Naqarot:
Doira dum-dum-a, bahori mavsum-a,
Kelsa bahor, gulg'unchalar qilar tabassum-a.

Xalq og'zaki ijodidan



Musiqiy cholg‘ular

- Musiqiy cholg‘u asboblari nomini esga oling.
- Har bir cholg‘u asbobi qaysi guruhga kirishini ayting.
- Orkestr tuzing. Qaysi cholg‘u asboblaridan simfonik orkestrda, qaysilaridan xalq cholg‘ulari orkestrida va qaysilaridan harbiy orkestrda foydalanasiz?

Guruhlarga bo‘linib, orkestr turlari haqida ma’lumot bering:

1-guruh – simfonik orkestr,
2-guruh – xalq cholg‘ulari orkestri,
3-guruh – harbiy orkestr,
4-guruh – estrada orkestri.






O'ZBE
RISHTO
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIM
33-UMU
O'STA TA'LI
MAKTAB
№ 85
18 10 23

Dunyo xalqlarini musiqiy cholg‘ulari

Dunyodagi har bir xalqning o‘ziga xos milliy cholg‘ulari bor. Masalan, **gusli** – rus xalq torli cholg‘usi, puflab chalinadigan **volinka** – Shotlandiya xalq cholg‘usi, **banjo** – AQSH xalq cholg‘usi, **kastanyetalar** esa Ispaniya xalq cholg‘usi.









Qaysi o‘zbek xalq cholg‘ularini bilasiz?

DUTOR

Dutor – ikki torli chertma musiqa asbobi. O‘zbek, tojik, uyg‘ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. O‘zbek dutori muloyim, nafis va shirali tovushi bilan boshqa cholg‘ulardan ajralib turadi. Dutor tut, o‘rik, yong‘oq yog‘ochlaridan yasaladi.

8



Baxshi – xalq dostonlari ijrochisi. Qo‘shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi san’atkor.



Doston – she’riy-nasriy janrdagi badiiy asar. Xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotda keng tarqalgan. Xalq dostonlari baxshilar tomonidan dutor, do‘mbira va boshqa xalq cholg‘ulari jo‘rligida ijro etiladi.

Dutorning nechta tori bor?
Dutor nimadan yasaladi?
Dutorda qanday musiqalar chalinadi?

CHANG

Chang – ko‘p torli, tirnama cholg‘u asbobi. Zamonaviy chang turi trapetsiya shaklida bo‘ladi. Chang 40 ta tordan iborat. U tayoqchalar bilan urib chalinadi.



9

Kutubxona yoki Internetdan foydalanib, dunyodagi biror xalqning cholg‘ulari haqida ma’lumot toping va matn yozing.

Musiqiy meros



Yunus Rajabiy – O‘zbekiston xalq artisti, taniqli hofiz, bastakor.

Yunus Rajabiy butun umrini shashmaqom san’ati – o‘zbek milliy musiqa merosini yig‘ishga va o‘rganishga bag‘ishlagan.

Shashmaqom – Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Rost, Iroq deb ataladigan olti qismdan iborat bo‘lib, uning har bir qismi bir qancha kuy va maqomlardan tashkil topgan.

“Maqom” arab tilidan olingan bo‘lib, “istiqomat o‘rni, turar joy” ma’nolarini bildiradi. Musiqiy ma’noda esa maqom kuy va qo‘shiqlarni tashkil etadigan tovushlarning musiqa asboblarida joylashadigan o‘rni, ya’ni pardadir.

Yunus Rajabiy kuchli eshitish qobiliyatiga va noyob musiqiy xotiraga ega bo‘lgan. U bolaligidayoq juda murakkab ohangni ham bir marta eshitganda yaxshi eslab qolgan va uni aniq takrorlay olgan. Yunus Rajabiy konservatoriyada musiqiy ta’lim olib, taniqli ijrochi bo‘lib yetishgan va Samarqanddagi musiqali drama teatrining rahbari bo‘lgan. Shu bilan birga u maqomlarni izlash, yig‘ish hamda yozib olish bilan shug‘ullangan. U xalq cholg‘u ansamblini tashkil etib, nafaqat O‘zbekistonda, balki xorijda ham mashhur bo‘lgan. Toshkent shahridagi metro bekatlaridan biri va ko‘chaga Yunus Rajabiy nomi berilgan, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti tashkil etilgan.

“Shashmaqom” so‘zma-so‘z tarjimada “olti maqom” degan ma’noni anglatadi. Maqom tuzilishiga ko‘ra, cholg‘u va vokal qismlariga bo‘linadi. Maqom ansambli, odatda, doira, rubob, g‘ijjak va dutordan tashkil topadi.

Maqom an’analari:

- bitta maqom qo‘shig‘i ikki-uch soat yoki undan ko‘proq davom etishi mumkin;
- o‘qitish tizimi “ustoz-shogird” tamoyiliga asoslanadi;
- maqom ijrochisi bir vaqtning o‘zida ham qo‘shiq aytishi, ham kuy chalishi mumkin.



2003-yilda shashmaqom “UNESCO” tashkiloti tomonidan yuksak baholanib, “Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonasi” deb e’tirof etilgan.

Maqom – musiqa san'atining eng murakkab janri. Uni ijro etish uchun nafas olish texnikasini o'zlashtirish, nafasni to'g'ri ishlatishni bilish kerak.

Nafas olish texnikasini rivojlantirish mashqlarini bajaring.

1. "Diafragmatik" mashqi

Chalqancha yotib, bir qo'lingizni ko'ksingizga, ikkinchisini qorinning pastki qismiga qo'ying. Chuqur nafas oling, bunda faqat qorin qimirlasin, ko'ksingizdagi qo'l harakatsiz qolishi kerak. Bunday nafas olish diafragmatik deb ataladi va vokal xonandasi uchun yagona to'g'ri nafas olish usuli hisoblanadi. Ushbu mashqni yotgan holda bajarib bo'lgach, tik turib ham bajarish mumkin.



2. “Shamni o‘chirish” mashqi

Mashq tik turgan holda bajariladi. Chuqur, to‘g‘ri nafas oling va o‘zingizni go‘yo sham o‘chirayotgandek tasavvur qilib, labingiz bilan havoni bir maromda va sekin puflab chiqaring.



3. “Kuchukcha” mashqi

Kuchuk jazirama issiqda qanday nafas olishini tasavvur qiling. Ko‘zgu oldiga qo‘yilgan stulga o‘tiring va orqa tomonga suyaning. Yelkangiz va bo‘yningizni bo‘sh qo‘ying. “Xo-o-o” bo‘g‘inini aytayotganda xuddi kuchukcha singari og‘iz orqali bir necha bor chuqur nafas oling va chiqaring.

4. “Dimog‘da aytish” mashqi

Chuqur nafas oling. Nafas chiqarayotganda, lablaringizni biroz juftlab, “m”, “n” tovushlarini dimog‘ bilan cho‘zib ayting.

10

Y. Entin she'ri,
G. Gladkov musiqasi

1
Ничего на свете лучше нету,
Чем бродить друзьям по белу свету.
Тем, кто дружен, не страшны тревоги.
Нам любые до́роги доро́ги.
Нам любые до́роги доро́ги.
Ла-ла-ла-ла-ла-ла ла-ла-ла-ла-ла
Ла-ла-ла, е-е-е-е-е.

2
Мы своё призванье не забудем:
Смех и радость мы приносим людям!
Нам дворцов заманчивые своды
Не заменят никогда свободы.
Не заменят никогда свободы.
Ла-ла ла-ла-ла-ла ла-ла ла-ла-ла-ла
Ла-ла-ла-ла-ла ла-ла-ла, е-е-е-е-е.



3
Наш ковёр – цветочная поляна,
Наши стены – сосны-великаны,
Наша крыша – небо голубое,
Наше счастье – жить такой судьбою.
Наше счастье – жить такой судьбою.
Ла-ла-ла-ла-ла ла-ла-ла-ла-ла-ла-ла–ла
Ла-ла-ла-ла-ла ла-ла-ла-ла-ла-ла-ла-ла
Ла-ла-ла ла-ла-ла-ла, е-е-е-е-е.



“Bremen mashshoqlari” (“Бременские музыканты”) qo‘shig‘i sizda qanday kayfiyat uyg‘otdi?
Ushbu qo‘shiqni tinglaganingizda nimani tasavvur qildingiz?
Bu qo‘shiq qanday ovozda kuylangan?

Ovoz

Ovoz – ovoz a'zolari yordamida chiqariladigan, balandligi, kuchi va tembri har xil bo'lgan tovush.

Har bir odamning ovozi har xil. Biz qulog'imiz orqali ayollar, erkaklar va bolalar ovozini osongina ajrata olamiz.

ERKAKLAR OVOZI

tenor, bariton, bas



Tenor – erkak xonandalarning baland pardali ovozi.



Luchano Pavarotti – italyan opera xonandasi, tenor.

11

Bas – erkak xonandalarning eng past pardali ovozi.

Jenisbek Piyazov – o‘zbek va qoraqalpoq opera xonandasi, bas.

12



Bariton – erkak xonandalarning yo‘g‘onligi jihatidan bas bilan tenor oralig‘ida bo‘lgan ovozi.

AYOLLAR OVOZI

soprano, metso-soprano, kontralto



Soprano – ayol xonandalarning eng yuqori pardali ovozi.



Monserrat Kabale – ispan opera xonandasi, soprano.

13

Kontralto – ayol xonandalarning eng past pardali (nisbatan yo‘g‘on) ovozi.



Marian Anderson – amerikalik opera xonandasi, kontralto.

14

Metso-soprano – ayol xonandalarning o‘rtacha yo‘g‘onlikdagi ovozi.

BOLALAR OVOZI

diskant, alt



Diskant – bolalarning baland pardali va ingichka ovozi.

Alt – xonanda o‘g‘il bolalarning past pardali va yo‘g‘on ovozi.

“Mening quyoshim” nomli neapolitancha qo‘shiq. 1898-yilda bastakor Eduardo di Kapya va shoir Jovanni Kapurro tomonidan yaratilgan.

15

Jingle bells



Jeyms Lord Pierpont she'ri

Jingle bells, jingle bells
Jingle all the way
Oh, what fun it is to ride
In a one horse open sleigh
Hey, jingle bells, jingle bells.

16





Oppoq qish-ey, oppoq qish

P. Mo'min she'ri,
A.Varelas musiqasi

17

1 Dam olmoqda dalalar,
Keng vodiylar, daralar.
Fasl zavqi atrofga
Qo'shiq bo'lib taralar.

NAQAROT:

Oppoq qish-ey, oppoq qish,
Eh, qorlari yumshoq qish.
Chana, konki o'ynatgan
Quvnoq qish-ey, quvnoq qish.

2 Tarnovlarda sumalak,
Ko'llar oyna – yaxmalak.
Ayting, ayting, bo'lmasin
Hech kim yo'lda charxpalak.

NAQAROT

3 Oppoq oq sut singari,
Ona yerga singadi.
Oftob kulib yaqinroq,
Qishning qahrin yengadi.

NAQAROT



Teatrga boramiz

Repertuar va chiptani ko‘rib chiqing.
Sizningcha, ushbu spektakllar qaysi teatrda namoyish etiladi?
Siz musiqali teatrda bo‘lganmisiz?
Chiptada qanday muhim ma’lumotlar keltirilgan?



Dekabr oyi repertuari

2	Yakshanba	17:00	Yangi yil konserti
3	Dushanba	17:00	Yangi yil simfonik konserti
4	Seshanba	18:00	"Superqahramonlar katta shaharda"
6	Payshanba	17:00	Simfonik konsert
20	Payshanba	18:00	"Traveata", opera
21	Juma	18:00	"Qarsildoq", balet
22	Shanba	17:00	"Aida", opera
23	Yakshanba	17:00	"Qarsildoq", balet
27	Payshanba	18:00	"Shahrizoda", balet
28	Juma	18:00	"Pushkiniana", konsert
29	Shanba	17:00	Yangi yil simfonik konserti
30	Yakshanba	17:00	"Qarsildoq", balet



Teatrga borgan bolalar haqidagi matnni o‘qing.

Sardor va Imron yangi yil bayramiga teatr chiptalarini yutib olishdi. Belgilangan kuni ular spektakl boshlanishidan o‘n besh daqiqa oldin teatrga kiraverishda uchrashishdi.

Tomoshabinlar allaqachon ichkariga kirib ketishayotgandi. Sardor soatiga qarab: “Hali o‘n besh daqiqa vaqt bor. Kel, do‘konga kirib, chips sotib olamiz”, – deb taklif qildi. Sardor va Imron do‘konda biroz ushlanib qolishdi, garderobni chetlab o‘tib, tomosha boshlanib bo‘lgandan keyin zalga kirishdi.

Bolalar qorong‘ida o‘rindiqlari qayerdaligini izlab, boshqa tomoshabinlarga xalaqit berib, oyoqlarini bosib o‘ta boshlashdi. Nihoyat, bolalar joylariga o‘tirib, sahnaning go‘zal bezatilganini ko‘rishdi. “Archani zo‘r bezatishibdi”, – dedi Imron tirsagi bilan yonidagi o‘rindiqda o‘tirgan bolani turtib. Zal issiq edi, bolalar ustki kiyimlarini yechishga qaror qilishdi. Faqat uni qo‘yadigan joy yo‘q edi. Sotib olgan chipslarni chiqarib, paketlarini baland ovozda shitirlatishdi. Atrofga pishloq hidini taratib, yeb tugatdilar. Chipsdan bo‘shagan paket qog‘ozlarini o‘rindiq ostiga tashladilar. Baribir qorong‘ida hech kim ko‘rmaydi. Qarsak chalish uchun esa qo‘l bo‘sh bo‘lishi kerak. San’atkorlar ta’zim qilish uchun sahnaga chiqdilar. “Ofarin, bravo! Bis! Ofarin! Bis!” – bir ovozdan qichqirishdi Sardor va Imron.



Bolalar teatrga tushish odoblaridan qaysilarini buzdilar?

Teatrda odam o‘zini qanday tutishi kerak?

Mening oilam!

1

Sizlarga sirim aytay,
Angladim men shuni.
Izladim butun olam,
Eng zo‘ri – oilam.
Birozgina to‘xta,
O‘yin kulgidan.
Bag‘ringga bos tezda,
Ota-yu onang.

18

NAQAROT:

Baxtliman ularni quchganda,
Ko‘nglim quvonchga to‘lar.
Baxtni izlang oiladan,
Baxt oilada bo‘lar.



2

Men endi aniq bildim,
Sizga ham aytaman.
Hoziroq borib oilam,
Bag‘rimga bosaman.
Ko‘rsatar to‘g‘ri yo‘l,
Menga hamisha.
Ba’zida qattiqqo‘l,
Baribir eng yaxshi.

NAQAROT



3

Doimo inoq bo‘ling,
Xushfe’l bo‘ling har vaqt.
Hammani hurmat qiling,
Shudir katta baxt.
Oilamni juda-juda,
Yaxshi ko‘raman,
Ota-onamning bag‘rida,
Doim baxtliman.

NAQAROT



Maktab

19

K.Turdiyeva she'ri,
J.Abdurahmonov musiqasi

Bu qanday aziz dargoh,
Muqaddas bizga har chog'.
Bilim deb boshlar yo'lga,
Bizlarni tanish yo'lga.

Qilasan hisob-kitob,
Berasan savol-javob.
Qo'lingda daftar-qalam,
Unda quvonchli olam!

Uni so'zlaymiz maqtab,
Uni ataymiz – "Maktab!"
Unda har kuni quvnoq,
Jaranglaydi, jaranglaydi qo'ng'iroq.





O‘quvchi, ustoz yurti,
Uning ishi – “O‘qi, yoz” yurti.
O‘rgatadi do‘stlikka,
Doim to‘g‘ri so‘zlikka.

Qilasan hisob-kitob,
Berasan savol-javob.
Qo‘lingda daftar-qalam,
Unda quvonchli olam!

Uni so‘zlaymiz maqtab,
Uni ataymiz – “Maktab!”
Unda har kuni quvnoq,
Jaranglaydi, jaranglaydi qo‘ng‘iroq.

Siz qanday raqslarni bilasiz?
Sizningcha, musiqa, raqs va sport o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

XALQ RAQSLARI

LAZGI – o‘zbek xalq raqsi

20



KALINKA – rus xalq raqsi

21



LEZGINKA – Kavkaz xalq raqsi

22



TARANTELLA – italyan xalq raqsi

23



Zamonaviy raqslar

24



SPORT RAQSLARI

Sport raqslari bu sport turi bo‘lib, bunday raqs musobaqalari butun dunyoda o‘tkaziladi. Raqs ustalari ikki dastur: Yevropa va Lotin Amerikasi raqslari bo‘yicha bellashadilar.

Yevropa raqslari dasturiga vals, kvikstep, tango, Vena valsi, fokstrot raqslari, Lotin Amerikasi raqs turlariga esa samba, rumba, cha-cha-cha, pasodobl, jayv raqslari kiradi.

25

VALS



26

RUMBA



27

KVIKSTEP



28

TANGO



29

PASODOBL



30

JAYV



“Raqsni top” o‘yini



31





32





33





34





35





36





37





38



Mehribonim onajon!

39

P.Mo‘min she’ri,
H.Xushvaqtov musiqasi



Juda ham a’losiz, oyijon, (2x)
Juda ham donosiz, oyijon.
Siz meni qo‘zim deb sevasiz, (2x)
Nur to‘la ko‘zim deb sevasiz.

NAQAROT:

Oyijon, oyijon, oyijon. (2x)

Siz meni barchaga yaxshilab, (2x)
Quchasiz o‘rgilib, erkalab.
Shu aziz boshimni silaysiz, (2x)
Menga baxt, omonlik tilaysiz.

NAQAROT:

Oyijon, oyijon, oyijon. (2x)






Musiqa – tasviriy san'atning singlisi

Sizningcha, musiqa va rangtasvir o'rtasida o'zaro bog'liqlik bormi?
Rassomlar ishida asosiy vosita nima?
Bastakor ishidagi asosiy vosita nima?





Kamalak chizing va unga notalarni tartib bilan yozing.
Kamalak va musiqa o'rtasida qanday umumiylik bor?



Red and yellow and pink and green
Purple and orange and blue
I can sing a rainbow
Sing a rainbow
Sing a rainbow too
Listen with your eyes
Listen with your ears
And sing everything you see
I can sing a rainbow
Sing a rainbow
Sing along with me
Red and yellow and pink and green
Purple and orange and blue
I can sing a rainbow
Sing a rainbow
Sing a rainbow too

40



P.I.Chaykovskiyning eng mashhur asarlaridan biri “Yil fasllari” misolida tasviriy san’at va musiqaning o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha tadqiqot o‘tkazing.

- 3 ta guruhga bo‘lining.
- O‘zingizga yoqqan faslni tanlang.



- P.I.Chaykovskiyning musiqiy asaridan parchalar tinglang.

Kuz



41

Qish



42

Bahor




43

- Ushbu fasllar manzarasini chizing.



Manzara tasviri va musiqiy asar sizda uyg'otgan kayfiyat hamda his-tuyg'ularni solishtiring.



44

Y. Entin she'ri,
A. Ribnikov musiqasi

1

Кто доброй сказкой входит в дом?
Кто с детства каждому знаком?
Кто не учёный, не поэт,
А покорил весь белый свет,
Кого повсюду узнают,
Скажите, как его зовут?

Бу! Ра! Ти! Но!
Буратино!

2

На голове его колпак,
Но околпачен будет враг.
Злодеям он покажет нос
И рассмешит друзей до слёз,
Он очень скоро будет тут,
Скажите, как его зовут?

Бу! Ра! Ти! Но!
Буратино!

3



Он окружён людской молвой,
Он не игрушка – он живой!
В его руках от счастья ключ,
И потому он так везуч,
Все песенки о нём поют,
Скажите, как его зовут!

Бу! Ра! Ти! Но!
Буратино!



Buratinoga cholg‘u asboblarini topishga yordam bering.





• Ushbu bulutchalardan haqiqiy do‘stga xos fazilatlarni bildiruvchi mos so‘zlarni tanlang.



• Sizningcha, musiqa insonga xos xususiyatlarni ifodalay oladimi?
• Do‘stlik mustahkam bo‘lishi uchun qanday fazilatlarga ega bo‘lish muhim?

- Do‘stingizni qanday musiqa bilan ta’riflagan bo‘lardingiz?

Rasmdagi qizlar haqida nima deya olasiz? Ularni kim deb atagan bo‘lardingiz? O‘zingizni bastakor deb tasavvur qiling. Siz har bir qizning fe‘l-atvorini aks ettirish uchun qanday musiqa yozgan bo‘lardingiz?

45





Dmitriy Borisovich Kabalevskiy – bastakor, pianinochi, dirijyor, pedagog. Kabalevskiy “Uch dugona” musiqiy asarini yozgan. Qahramonlarini Yig‘loqi, Urishqoq va Quvnoq qizchalar deb atagan.

Bu asarda musiqaning tabiati qanday o‘zgaradi? Musiqada Yig‘loqi, Urishqoq va Quvnoq qizchalarni (Plaksa, Rezvushka va Zlyuka) farqlashga nima yordam beradi? Sizningcha, nima uchun bastakor bir asarda turli xil qizchalarni umumlashtirib, uni “Uch dugona” deb nomlagan?

Tinchlik bo‘lsin

H.Ahmedova she’ri,
X.Hasanova musiqasi



46

1

Ko‘kni bulut qoplamasin,
Quyosh kulsin, quyosh kulsin.
Biz istaymiz bu dunyoda,
Tinchlik bo‘lsin, tinchlik bo‘lsin.

Qaldirg‘ochlar qanotida,
Dunyoga baxt olib kelsin.
Turnalarning bayotida,
Tinchlik bo‘lsin, tinchlik bo‘lsin.

NAQAROT: (2x)

Tinchlik bo‘lsin bu dunyoda,
Tinchlik bo‘lsin bu dunyoda.
Bolalarning baxti uchun,
Tinchlik bo‘lsin bu dunyoda.
Olam to‘lsin, obod bo‘lsin,
Kelajak umidlar haqqi,
Tinchlik bo‘lsin bu dunyoda.

2

Onajonim allasidan,
Yer-u osmon orom olsin.
Bog‘imizga xo‘b yarashgan,
Hayot guli hech so‘nmasin.

Qaldirg‘ochlar qanotida,
Dunyoga baxt olib kelsin.
Turnalarning bayotida,
Tinchlik bo‘lsin, tinchlik bo‘lsin.

NAQAROT: (2x)

Tinchlik bo‘lsin bu dunyoda,
Tinchlik bo‘lsin bu dunyoda.
Bolalarning baxti uchun,
Tinchlik bo‘lsin bu dunyoda.
Olam to‘lsin, obod bo‘lsin,
Kelajak umidlar haqqi,
Tinchlik bo‘lsin bu dunyoda.




Mikrofon
Akustik karnaylar
Ovoz muhandisi


Quloqchin
Miksher pulti
Ovoz rejissori

Ovoz yozish studiyasi

Ovoz yozish studiyasi – bu ovoz yozish va uni qayta ishlash uchun maxsus xona bo'lib, audiostudiya deb ham ataladi.



Mikrofon – bu tovush tebranishlarini lektr tebranishlariga aylantirib beruvchi qurilma bo'lib, u tovushlarni kuchaytirib, masofaga uzatib berish uchun ishlatiladi.

Quloqchin – musiqa, nutq yoki boshqa tovushli signallarni boshqalarga xalaqit bermasdan alohida tinglash qurilmasi.





Akustik karnaylar – bu tovushni uzatish uchun foydalaniladigan maxsus qurilmalar.


Miksher pulti – bu bir necha tovush signallarini jamlaydigan, ovozni to‘g‘rilaydigan, kompyuterga maxsus effektlar va yozuvlarni qo‘shadigan qurilma.





Ovoz muhandisi – bu ovoz uskunalarini tanlaydigan, o‘rnatadigan va sozlaydigan texnik mutaxassis.

Ovoz rejissori – qo‘shiqlar, vokallar, cholg‘ular, turli xil tovushlarni yozib, keyin ovozni mukammal sifatga olib keladigan mutaxassis.



Motsart – musiqa ramzi



Avstriyalik mashhur bastakor **Volfgang Amadey Motsart** 1756-yilda Zalsburg shahrida tug‘ilgan. Uning otasi Leopold Motsart skripkachi va bastakor bo‘lgan. Otasi Volfgangning yetti yoshli opasiga klavesin chalishni o‘rgata boshlagan. Ushbu darslar uch yoshli Volfgangga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Shu tariqa ikkala farzandining ham musiqiy qobiliyati erta namoyon bo‘lgan.





Klavesin – qadimiy klavishli musiqa asbobi.

Kunlarning birida otasi o‘g‘lini cholg‘u yonida o‘tirib, uzoq vaqt mobaynida kerakli tovushlarni tanlashdan zavqlanayotganini ko‘rib, hayratga tushadi. Bu hol otasida katta qiziqish uyg‘otadi va to‘rt yoshli Volfgangga klavesinda kichik musiqiy asarlarni chalishni o‘rgata boshlaydi.

Menuet – qadimgi fransuz xalq raqsi.



47

Menuet, Volfgang Amadey Motsart

Bu musiqa qanday kayfiyatni uyg‘otdi?
Uni tinglayotganingizda qanday tuyg‘ularni his qildingiz?

Motsart besh yoshidan boshlab musiqa bastalagan, otasi qog‘ozga tushirgan. Motsartni vunderkind, musiqani yaxshi his qiluvchi va noyob musiqaviy xotiraga ega bola deb atashgan.

Motsart olti yoshidan boshlab turli mamlakatlarda muvaffaqiyatli gastrol safarlarida bo‘lgan. Hatto qirollar va malikalar uchun musiqa chalgan.

Motsartning eng mashhur asarlaridan biri – **“Turkcha marsh”.**

48

Bu musiqiy asarga qanday ta’rif berish mumkin?
U qaysi musiqiy asbobda ijro etilgan?
Kuy qanday temp va ritmda chalinadi?

Musiqiy sehr



Aleksandr Sergeyevich Pushkin – buyuk rus shoiri va yozuvchisi, “Shoh Saltan, uning ulug‘vor va qudratli o‘g‘li shahzoda Gvidon Saltanovich va go‘zal Oqqush malika haqida ertak” muallifi. Ertak syujetiga ko‘ra, Oqqush shahzoda Gvidonni otasining oldiga uchib ketishi uchun qovog‘ariga aylantiradi.

“Qovog‘arining parvozi” – Nikolay Rimskiy-Korsakov tomonidan “Shoh Saltan haqida ertak” operasi uchun yozilgan orkestr intermediyasi.

Intermediya – musiqali drama yoki opera oralig‘ida ijro etiladigan, ko‘pincha hajviy yo‘nalishdagi kichik musiqiy asar.

49



“Qovog‘arining parvozi” kuyi skripkada eng tez ijro etiluvchi asar sifatida Ginnessning rekordlar kitobiga kiritilgan.



Nikolay Andreyevich Rimskiy-Korsakov – rus bastakori. Uning musiqalarini butun dunyoda sevib tinglaydilar va uni musiqiy ertakchi deb ham ataydilar. Pushkinning "Shoh Saltan ertagi"ni o'qigach, tezda uning musiqiy talqinini yaratishni, qahramonlarini tovushlarda jonlantirishni xohlagan.

"Bu ertaklar bunchalar zavqli!" – dedi kunlardan birida Nikolay Andreyevich Pushkinning navbatdagi ertagini o'qib.

A.S. Pushkinning "Shoh Saltan ertagi"da uchta mo'jiza bor. N.A. Rimskiy-Korsakov operasida har bir mo'jizaning ranglar bilan emas, balki tovushlar bilan aks ettirilgan, yorqin rasmni ifodalovchi o'ziga xos musiqiy talqini bor.



BIRINCHI MO'JIZA

"O'rmonda o'sar archa,
Tagida bor olmaxon,
Qo'shiq aytadi biyron,
Olmaxon o'ynar po'choq
Ham chaqar nuqul yong'oq,
Puchmas chaqqan yong'og'i,
Oltin hamma po'chog'i,
Zumrad ekan mag'izi,
Bu – mo'jiza nag'izi!"



Ushbu musiqiy ertak haqida fikringiz qanday?

Olmaxonni qanday tasavvur qildingiz?

IKKINCHI MO‘JIZA

“Qaydadir, okean toshar.
Bo‘sh qirg‘oqlardan oshar,
Va shovqin-suron solar,
Har yon chopqillab qolar,
Suvdan chiqar shu zamon –
O‘ttiz uchta pahlavon.
Tanlari o‘tday yonur,
Bari dov, yosh va yovqur;
Bari savlatli, ko‘rkam,
Norg‘ul, azamat, o‘ktam.
Bari terilgan raso,
Boshliq – Chernomor bobo”.

51

Rimskiy-Korsakov qahramonlarni qanday musiqa bilan ifodalaydi? Siz ularni qanday tasavvur qilasiz?



UCHINCHI MO‘JIZA

“Bir shoh qiz yashar, ko‘rkam...
Ko‘z uzib bo‘lmas hech ham.
Kunduz – kun xira bo‘lur,
Tunda – olam nur olur.
Soch tagida – oy qalqar,
Manglayda – yulduz balqar,
Yursa xo‘b sollanadi,
Tovusday tovlanadi.
So‘zi hammaga yoqar,
Buloq suviday oqar.
Mo‘jizaki ajoyib,
Ajoyib-u g‘aroyib”.

52

Musiqa qanday yangraydi?
Oqqush malikani qanday qiyofada tasavvur qildingiz?



His-tuyg‘ular lug‘ati



Yorqin
Tetik
Bayramona
Hayajonli
Tantanali
G‘olibona

Nafis
Mayin
O‘ychan
Xayolparast
Xotirjam
Tinch



G‘amgin
Tashvishli
Jiddiy
Behalovat
Fojiaviy



Quvnoq
O‘ynoqi
Yengil
G‘ayratli
Yangroq
Shodon

Achinarli
Qayg‘uli
Tashvishli
Ehtiyotkor
Yashirin





Jahldor
Shafqatsiz
Qo‘rqinchli
Og‘ir
Ayanchli
Isyonkor

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

1-2-darslar. Konsertga boramiz 4
3-dars. Obod vatanim 10
4-dars. Estrada san'ati 12
5-dars. Doira dum-dum 14
6-dars. Musiqiy cholg'ular 16
7-8-darslar. Dunyo xalqlarining musiqiy cholg'ulari 18
9-10-darslar. Musiqiy meros 22
11-dars. Bremen mashshoqlari 26
12-13-darslar. Ovoz 28
14-dars. Jingle bells 32
Oppoq qish-ey, oppoq qish 33
15-dars. Teatrga boramiz 34
16-dars. Mening oilam! 36
17-dars. Maktab 38
18-19-darslar. Raqs 40
20-dars. "Raqsni top" o'yini 44
21-dars. Mehribonim onajon! 46
22-23-darslar. Musiqa – tasviriy san'atning singlisi 48
24-dars. Buratino 52
25-dars. Mening do'stlarim 54
26-dars. Tinchlik bo'lsin 56
27-dars. Ovoz yozish studiyasi 60
28-dars. Motsart – musiqa ramzi 62
29-30-darslar. Musiqiy sehr 64
His-tuyg'ular lug'ati 68

Darslik holati haqida ma'lumot

№	O'quvchining F. I. Sh	O'quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

UO'K: 78(075.3)
KBK 85.31ya72
Ch 44

N.P.Cheryomuxina
Musiqiy savodxonlik: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. / N.P. Cheryomuxina. – Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 72 b.

Nadejda Petrovna Cheryomuxina

Musiqiy Savodxonlik

3-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

Muharrirlar:	*M.Mirsalikov, Sh.Muslimova*
Badiiy muharrir	*A.Sobitov*
Musahhihlar:	*M.Azizova, X.Serobov*
Rassom	*R.Ismailova*
Kompyuterda sahifalovchi	*S.Kosyanenko*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 01.07.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 15 n/shponli. "Arial" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m^2 qog'oz. Shartli b.t. 4,5. Hisob-nashriyot t. 0,8. Adadi 626 983 nusxa. Buyurtma raqami 23-340. "O'zbekiston" NMIUda chop etildi.